

## O'ZBEK XON ATLASNING JILOSI.

**Наманган вилоят тарихи ва маданияти давлат музейи илмий ходими:**

**M. Xusainova.**

**Atlas** (arab.-tekis, silliq) – tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to‘qiladigan bir yuzlama silliq mato. Tanda ipi abrbandi usulida bo‘yab bezatiladi. Alohida ishlov berib Atlasga jilo beriladi, shunga ko‘ra u tovlanib turadi. Ilgari mato yuziga kudung urilgan, hozirgi kunda Atlas issiq satxli baraban – kalandrdan o‘tkaziladi. O‘zbek Atlaslari rang-barang nafis gullarga boy, bu gullar bir-biri bilan uyg‘unlashib, matoda yaxlit go‘zal bir naqshni hosil qiladi. Atlasning tabiiy ipakdan to‘qilgan eng a‘lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilishi va to‘qilish usulidadir. Atlasning to‘qilish jarayoni: to‘rt tepkili Atlas to‘rt tepkili dastgohda, sakkiz tepkili Atlas sakkiz tepkili dastgoxda to‘qiladi. Tandaga gulalar tandaning har sakkiz naxi to‘qilishda ustma-ust keladigan qilib ko‘tariladi, naxlar tepkilarga muvofiq-lashtirilib, gulalar o‘ynag‘ichlarga ulanadi. Tepki bosilganda gulaning biri pastga tortilib, ustma-ust yotgan naxlardan birining komi ochiladi va orasidan birinchi arqoq ipi o‘tadi, ikkinchi tepki bosilsa, ikkinchi komi ochilib, ikkinchi arqoq ipi o‘tadi. Shu tariqa sakkiz nax orasiga sakkiz arqoq ipi ustma-ust tushib, tanda ipi matoning ustiga tomon joylana borib to‘qima bir yuzlamaga aylanadi.



Atlas: Tushuntirish matnlari bo‘lgan muayyan tizimli xaritalar to‘plami, jildlar yoki ayrim varaqlar yig‘indisi shaklida nashr qilinadi (qarang Geografik atlas). Maxsus albomlar – anatomik Atlas va hokazo nomi., „Atlas“ – amerika eltuvchi raketalar turkumining nomi; „Atlas“ sayyoralar aroballistik raketasining dastlabki ikki pog‘onasi sifatida foydalaniladi. Start massasi – 125 – 135 t, umumiy uzunligi 31 – 35 m. „Atlas-Ajena“ va „Atlas-Sentavr“ variantlari mavjud. „Midas“, „Samos“ YESYni, sayyoralararo avtomatik stansiyalar „Reynter“, „Mariner“ va boshqalarni parvoz qildirish uchun qo‘llanadi. Raketa dvigateli yonilg‘isi – suyuq kislorod va kerosin. Qadimda Atlaslar dastaki dastgoh (qo‘l do‘kon)larda to‘qilgan. Hozir dastaki dastgoxlarda ham, mexanik dastgoxlar (to‘quv stanoklari)da ham to‘qiladi. Mexanik dastgoxlarni elektr dvigatel harakatlantiradi. O‘tmishda Atlasning bir kiyimligi yaxlit holda ham, ikki bo‘lakka bo‘lib ham sotilgan. Ikki bo‘lakka bo‘lingan Atlasning har bir bo‘lagi bir toqa Atlas, ikkala toqasi bir jo‘ra Atlas deb nomlangan. Atlasni toqa-jo‘ra qilish **1930-yillarda** urfdan qoldi. Atlas to‘qish Marg‘ilonda juda qadimdan rivojlangan, boshqa joylarga shu yerdan tarqalgan. 20 – asr boshlarida bu yerda yuzlab Atlas to‘quvchi kosiblar bo‘lgan, 20-yillarda ular 4 ta sanoat artellariga uyushgan. 1963-yilda bu artellar birlashtirilib yirik korxona – „Atlas“ firmasiga aylantiriddi. 1976-yildan Marg‘ilon Atlas ishlab chiqarish birlashmasi. Atlas to‘qish, ayniqsa, Namangan (Namangan shoyi ishlab chiqarish birlashmasi), Xo‘jandda, shuningdek Andijon, Qo‘qon, Samarqand shaharlarida rivoj topgan. Atlasdan ayollar liboslari, ko‘rpa, ko‘rpachalar, erkaklar kiyig‘i va boshqa buyumlar tayyorlanadi. Eng mashhur Atlaslar: „Qora atlas“, „Bargi karam“, „Chaqirim“, „Yahudiy nusxa“, „Nomozshomgul“, „Shaxmat“ „Qora ko‘zim“ va boshqa O‘zbekiston Atlaslari respublika hududidan tashqari – xorijiy mamlakatlarga ham chiqarilmoqda. 1967-yilda Monreal (Kanada)da o‘tkazilgan Xalqaro ko‘rgazmada, 1978-yilda Yugoslaviyaning Zagreb shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro yarmarkada xonatlas Oltin medal bilan mukofotlandi. Toshkent Modellar uyida xonatlas dan tikilgan tayyor kiyimlar 1970-yilda Yaponiya (Osako)da, 1987-yilda Budapesht kuzgi yarmarkasida, 1988-yilda Bag‘dodda, 1989-yilda Hindiston (Dexli)da bo‘lib o‘tgan Xalqaro yarmarkalarda, AQShning Vashington (1998) va Chikago (1999) shaharlarida xususiy yig‘imlardagi o‘zbek Atlaslari namoyish etildi.



Xon atlas – necha yuz yillik tarixga ega matolarimizdan. O'zligimizni, o'zbekligimizni eslatib turuvchi bu matodan tikilgan liboslar ayollarimizga, qizlarimizga o'zgacha joziba, ko'rk, chiroy bag'ishlaydi. Qizlarimizdagi hayo, ibo atlas bilan o'zaro uyg'unlashib, ta'rifga so'z o'jiz manzara hosil qiladi. Bu bejiz emas. Undagi yorqin ranglar, jilvakor naqshlar ona – tabiatimizdan nusxa olib yaratilgan. Inson esa tabiatning ajralmas bir bo'lagidir. Milliy qadriyatlarimizdan sanalgan bu matoning „Marg'ilon atlas“, „Qora atlas“, „Bargi karam“, „Namozshomgul“, „Qora ko'zim“ kabi nusxalari mashhur sanaladi. Ular nafaqat go'zal va jozibador, balki kishi salomatligi uchun ham foydalidir. Chunki atlasu adraslarimiz tabiiy ipakdan tayyorlanadi. Tabiiy ranglar vositasida bo'yaladi. Shu sababli "Oila va xotin- qizlar qo'mitasi" tomonidan milliy liboslarimizda xalqimizning ming asrlik o'tmishi, urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari shuningdek o'ziga xos xususiyatlari mujassamligini namoyon etish milliy qadriyatlarimizni mazmunan boyitish maqsadida "Xon atlas" festivalini o'tkazish an'anaga aylandi. Joriy yilning 10-setabr kuni "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti dekan maslahatchisi F.Yunusova, fakultet tyutori D.Xursandova, 1-Talabalar turar joyi tarbiyachi pedagogi N.To'raqulovalar hamkorligida “Xon atlasim – mening g'ururim” shiori ostida tadbir o'tkazildi. Festivalga universitet psixologi M.K.Muhammedova mehmon sifatida taklif etildi. Ushbu festival

doirasida uyushtirilgan bu madaniy – ma'rifiy tadbirda barcha talabalar turar joyida istiqomat qilayotgan qizlar ishtirok etishdi. Tadbirda o'zaro muloqot chog'ida milliy qadriyatlarimizning bir bo'lagi sanalgan atlasni asrab-avaylash, o'zbekona kiyinish madaniyati haqida so'z bordi. Qatnashchilar matolardan liboslar tikish jarayoni bilan tanishdilar, atlasu adras haqida atroflicha tushunchaga ega bo'lishdi, milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizga oid bilimlarini boyitdilar. O'ylaymizki bunday tadbirlar qizlarimiz qalbida milliy iftixor tuyg'ularini yuksaltirib, qadimiy urf-odat va an'analarga nisbatan hurmat va e'tibor uyg'otib, momolarimizga xos o'zbekona did va nafislik xususiyatlarini shakllantirib va keng targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek milliy matolari deganda ko'z o'ngimizda kamalak ranglarda tovlanuvchi atlasu adraslar namoyon bo'ladi. Usta hunarmandlarning mashaqqatli mehnati, qobiliyati, mahorati natijasida yaralgan atlas, adras, beqasam kabi bir-biridan bejirim matolar nihoyatda qadrlidir.



Azaliy qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan ushbu go'zal matolar milliy boyligimiz sanaladi. Unda xalqimizning uzoq hamda shonli o'tmishi, qadimiy an'analari, estetik dunyoqarashi, didi va o'ziga xos xususiyatlari mujassam. "Atlas" so'zi arab tilidan tarjima qilganda tekis, silliq degan ma'noni anglatadi. U tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato hisoblanadi. Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi. Shunga ko'ra u tovlanib turadi. Atlasning tabiiy ipakdan to'qilgan eng a'lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilish hamda to'qilish usulidadir. Atlas to'qish Marg'ilonda juda qadimdan rivojlangan va boshqa joylarga

tarqalgan. XX asr boshlarida bu yerda ko‘plab atlas to‘quvchi kosiblar bo‘lishgan. 2017 yilda o‘zbek ipak matolarining to‘qish texnologiyasi YUNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani milliy matolarimizning jahon miqyosidagi yuksak o‘rnini namoyon etadi. Bugungi kunda yo‘qolib borayotgan an‘analarni asrab-avaylash, jumladan, tarixiy matolarni qayta tiklash tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ipak matolar orasida eng mashhuri abrli atlas va xonatlasdir. Ularning o‘ziga xosligi – bezak va gullar matoga emas, balki o‘rish ipining o‘ziga chiziladi. Aytaylik, uzunligi 200 metr, eni 40 santimetr atlasni to‘qish uchun 3 ming 600ta ipak tolani bir-biri bilan uyg‘unlashtirish lozim. Bitta tola uzilsa ham mahsulot sifatiga putur yetadi. Shu bois matoga yangi element qo‘shish juda qiyin. Iplarni "abr" usulida bo‘yash ham katta mahorat talab etadi. E’tiborlisi, barcha ranglar tabiiy usulda, bo‘yoq beruvchi giyohlardan tayyorlanadi. Shu bois ular o‘z sifatini yo‘qotmaydi, ranglar qorishib ketmaydi. Atlasdan ayollar liboslari, ko‘rpa, ko‘rpachalar, erkaklar qiyig‘i va boshqa buyumlar tikiladi. Adrasdan esa ayollarning kiyim-kechaklari bilan birga chopon, ko‘rpa, ko‘rpachalar tikiladi. *Atlas va adras kabi ko‘zni quvnatadigan, yorqin ranglari, takrorlanmas naqshlari bilan kishiga xush kayfiyat bag‘ishlaydigan milliy liboslarimizda xalqimizning ming asrlik o‘tmishi, qadimiy urf-odat va an‘analari, estetik qarashlari shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlari mujassam.* Respublikamizda atlas va adras targ‘ibotini kuchaytirish, o‘zbek milliy liboslariga mehr uyg‘otish va ommalashtirish, zamonaviy kiyinishda o‘zbekona sharm-hayo me‘yorlarini targ‘ib qilish, o‘zbekona kiyinish madaniyatini yuksaltirish maqsadida «Xon atlas» festivali keng nishonlanmoqda. Ushbu bayramga daxldorlikning o‘ziga xos namunasi sifatida Transport vazirligida faoliyat yurituvchi barcha ayol xodimlar davlat xizmatchisining qat’iy kiyinish qoidalarini milliy atlas va adras liboslari elementlari bilan uyg‘unlashtirdi. Festivalda faol ishtirok etgan ayollarimiz go‘zal milliy liboslar bilan kiyinishda milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini kreativ tarzda namoyon etishdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Atlas va adras to‘qish an‘analari.** – Ўзбекистон маданият вазирлиги сайти: [www.madaniyat.uz](https://www.madaniyat.uz)

2. **O‘zbek xon atlasining sirli jilosi – “Zarafshon” gazetasi, 2021 йил, 14 сентябрь сони.**
3. **O‘zbekiston madaniy merosi – milliy matolar. – Тошкент: “O‘zbekiston milliy muzeyi” nashri, 2022.**